



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY RIVOJLANISHI AMALIYOTI

Normurodova Sabina Laziz qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Bolalik inson hayotidagi o‘ziga xos davr bo‘lib, bu davrda bola nafaqat jismonan o‘sadi balki shaxs sifatida shakllanadi: bola o‘zi yashaydigan va rivojlanadigan jamiyatning an’analari, qadriyatlari, madaniyatini o‘zlashtiradi, qabul qiladi, bilimlarni egallaydi va shaxs sifatida shakllanib boradi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarning ijtimoiy rivojlanishida nimalarga e’tibor berish lozim?

Ijtimoiy rivojlanish kattalar yordamida amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, kattalar bilan muloqot paytida bola qoidalar asosida yashashni boshlaydi, o‘z manfaatlari va suhbatdoshlarining manfaatlarini hisobga olishga harakat qiladi, o‘ziga xos xulqatvor normalarini qabul qiladi.

Bolaning kommunikativ tajribasining asosiy manbai oila bo‘lib, ota-onal bolaga atrofdagi tengdoshlari bilan muloqot qilish qoidalari boyicha bilim, ko‘nikma va tajribani namoyish etadi. Bola o‘z navbatida ko‘rgan narsasiga taqlid qiladi, undan nusxa ko‘chiradi.Ushbu tajribadan foydalangan holda bolalar o‘zlarining kichkina dunyosida bir-birlari bilan muloqot qilishni o‘rganadilar.

Ma’lumki shaxs tug‘ilmaydi, balki shakllanadi. Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muloqot yetakchi ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ota-onalar bolaning boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatish qobiliyatiga yetarlicha e’tibor berishlari kerak.

Maktabgacha yoshdagи bolaning ijtimoiy rivojlanish bosqichlari:

1. Tugilgandan olti oygacha.

Go‘dak kattalar yordamida aloqa asoslarini o‘rganadi, yuz ifodalari va harakatlari, tovushlar kabi aloqa vositalaridan foydalanadi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

2. Olti oydan ikki yoshgacha. Bu davrda bola predmetli faoliyat orqali kattalar bilan aloqani namoyon qiladi. Bola tez-tez ota-onasining yordamiga muhtoj, nimanidir so‘raydi, qo‘shma harakatlar qiladi.

3. Uch yoshdan to‘rt yoshgacha. Ushbu yosh davrida bola o‘z tengdoshlari jamoasida muloqot qilishni xohlaydi. Tengdoshlari muhitiga kirib borib bola uning meyyorlari va qoidalarini qabul qiladi va unga moslashib boradi.

Bunda ota-onalar va kattalar bolaga faol yordamchi bo‘lishadi: boshqalarning o‘yinchoqlarini olish yaxshi emasligi, o‘rtoqlari bilan do‘stlashish va ularni hafa qilmaslik kerakligi, qanday qilib odobli bola bo‘lish kerakligini haqida aytishadi.

4. To‘rt yoshdan besh yoshgacha. Bu yosh davri bolaning dunyodagi hamma narsalar haqida cheksiz savollar berishi bilan ajralib turadi. Bolaning nutqi muloqotning asosiy usuliga aylanadi. Bola kattalar bilan ma’lumot almashadi va atrofdagi dunyo hodisalarini muhokama qiladi.

5. Olti yoshdan yetti yoshgacha. Bu yoshga kelib bolaning muloqoti shaxsiy shaklga ega bo‘ladi. Bola ijtimoiy munosabatlarining 30 foizi tengdoshlari bilan bo‘ladi. Bolalar o‘zlarini tutishning ba’zi usullari tengdoshlari uchun maqbul, ba’zilari ma’qul emasligini anglaydilar. Boshqa odamlarning fikrlari to‘grisida tobora ko‘proq xabardor bo‘lishlari bilan bolalar ijtimoiy jihatdan maqbul yo‘l tutishga intilishadi.

Bolaning to‘laqonli shakllanishi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhitning o‘ziga hos xususiyatlariga, ota-onalarning shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, ular bolalarning shaxsiyatini shakllantirish uchun eng muhim namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagি bola ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar:

- oila;
- bolalar bog‘chasi;
- bolalar muassasalari;(to‘garaklar, studiyalar)
- tabiat;
- tarbiya.

Bularning barchasi bolaning ijtimoiy muhitini tashkil qiladi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga qanday ta'sir qiladi?

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy shakllantiruvchi maxsus muhitning yaratilganligi;
2. Bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan uyushgan muloqotning mavjudligi;
3. O'yin, mehnat va ta'lim- tarbiyaviy faoliyatning tashkil etilgani;
4. Didaktik qo'llanmalar va o'quv jihozlarining mavjudligi.

Bu shartlarning barchasi bir vaqtning o'zida maktabgacha yoshdag'i bolaning intensiv bilim olishi, ijodiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy hususiyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi va bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar bog'chasi bormaydigan bola uchun yuqoridaq barcha omillarining kombinatsiyasini tashkil qilish oson bo'lmaydi.

Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bolaning hayotdag'i faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Odamlar bilan oson muloqot qilish, ularni tushunishga urinish, hamdardlik bildirish, yordam berish bilan namoyon bo'ladigan umumiy yaxshi odob-axloqlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichlaridir. Shuningdek bolaning o'z ehtiyojlari haqida gapirishi, maqsadni to'g'ri qo'yish va unga erishish qobiliyati ham ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning yana bir muhim jihatidir.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar:

1. Farzandingiz bilan suhbatlashing.

Farzandingizni e'tiborli bo'lishga o'rgating. Bolaga boshqa odamlarga ham e'tiborli bo'lishini, ularning ham o'z ehtiyojlari, istak -hoxishlari borligini tushuntiring. (bola hudbin bo'lib tarbiyalanmasligi kerak)

2. Farzandingizga mehrli bo'ling. Farzand tarbiyasidaadolatli bo'ling. Bunda bolani o'rabi turgan muhit mehrga, e'tiborga va tinchlikka to'la bo'lsin.

3. Farzandingizga o'yinchoqlari bilan bo'lishishni o'rgating. Bu unga tezroq do'stlar orttirishga yordam beradi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

4.Bolangiz uchun ijtimoiy doirani yarating. Uyda, bolalar o‘yin maydonchalarida, bolalar bog‘chasida tengdoshlari bilan muloqot o‘rnatishiga yordam bering.

5.Bolangizning yaxshi hulq-atvorini maqtang. E’tiborni boladagi yaxshi xislatlarni rivojlantirishga qarating, shunda bola tabiatida yomon xislatlarga o‘rin qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. —O‘zbekiston|| nashriyoti. 2017 yil. 263-bet.
2. Teshabayeva Zamira Sobirovna Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. Darslik-T.: “Renesans sari”, 2024 56-bet
3. Z.S Teshabayeva Professional training of future preschool teachers in the field of contextual learning technologies. Academic research in educational sciences 2 (2), 1360-1367
4. Normurodova Sabina Laziz qizi O‘zbekistonda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimi MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI2025-yil, fevral, №2-son 395-397
5. Teshabayeva, Z. Differential Education as a Factor in Improving the Effectiveness of the Educational Process. Ankara International Congress on Scientific Research-XI, January 10-12, 2025 / Ankara, Türkiye (The Proceedings Book). [1482-1484]. URL: <https://www.ankarakongresi.org>.
6. Тешабаева, З. С. (2023). Технологии формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей педагогов. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2023, 714-717
7. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.